GLOBALLASHUV SHAROITIDA TEXNOLOGIYA FANII O‘QITISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Abdullayeva F.S. - Guliston Davlat Pedagogika instituti “Aniq va tabiy fanlar “kafedirasi o‘qituvchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga muvofiq, ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, zarur deb hioblanadi. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarining texnologiya fani o‘qituvchilarini ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Shu bois, texnologiya fani o‘qituvchilari “Texnologiya fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar” muammolarini xal qilishga qaratilgan bo‘lib, u texnologiya fani o‘qituvchilariga ta’limda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini ochib beradi.

Zamonaviy yondashuv va innovattsiyalar asosida o‘qitish tizimining vazifasi o‘quvchining individual qobiliyatini hisobga olish va rivojlanishtirishdan iborat bo‘lishi kerak. Ilmiy-texnik taraqqiyot jadallashuvi sharoitida uning yuksalib boruvchi talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlash uchun o‘qitishni jadallashtirish, o‘qitishda inson organizmining, uning ongini butun imkoniyatlaridan to‘la foydalanish zarur bo‘ladi. Bu esa, o‘qitish jarayonida axborotlar berishda, o‘quv materialini tizimlash va turkumlash usullari, o‘qitishni kompyuterlash, o‘quv televideniyasidan foydalanish va h.k.ni anglatadi. Ilmiy-texnik taraqqiyoti jadallashuvi sharoitida ishlab chiqariladigan mahsulotlar ilmtalab, originalligi, murakkabligi, yuqori sifati va sermahsulligi bilan ajralib turadi. Mashina va jihozlar unumdorligi, ular puxtaligining ko‘p marotaba oshganligi tufayli mahsulot birligiga sarf qilinadigan energiya ham bir necha marotaba kamayadi. Bu sharoitlar kadrlar tayyorlash tizimiga tegishli talablarni qo‘ya boshlaydi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi Kichik guruhlarda ishlash orqali o‘rganish – ma’lum muammoning echimini topishga va o‘quvchilar faolligini oshirishga qaratilgan darsdagi ijodiy hamkorlikdagi ish. Bosqichlari: guruhlarga bo‘lish, muammoni guruhlarda muxokama qilish, muammoning echimlari taqdimoti, xulosalash. Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish. Bu yondashuvda kichik guruhlar 4-6 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning

mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari qismlarga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma’lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a’zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. O‘quvchilarning kichik guruhlardagi o‘quv faoliyati o‘yin (turnir, musobaqa) shaklida, individual tarzda ham tashkil etilishi mumkin Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish. Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi 1976 yili TelAviv universiteti professori Sh.Sharan tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metodda ko‘proq o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy ishiga e’tibor qaratiladi. O‘quvchilar alohida-alohida yoki 6 kishilik kichik guruhlarda ijodiy izlanish olib boradilar. Ijodiy izlanish kichik guruhlarda tashkil etilganda darsda o‘rganish lozim bo‘lgan o‘quv materiali kichik qismlarga ajratiladi. Keyin bu qismlar yuzasidan topshiriqlar har bir o‘quvchiga taqsimlanadi. Shunday qilib, har bir o‘quvchi umumiy topshiriqning bajarilishiga o‘z xissasini qo‘shadi. Kichik guruhlarda topshiriq yuzasidan munozara o‘tkaziladi. Guruh a’zolari birgalikda ma’ruza tayyorlaydi va sinf o‘quvchilari o‘rtasida o‘z ijodiy izlanishlari natijasini e’lon qiladi. Kichik guruhlar o‘rtasida o‘tkazilgan o‘quv bahsi, munozara o‘quvchilar jamoasining hamkorlikda bajargan mustaqil faoliyatining natijasi, yakuni sanaladi. Hamkorlikda ishlash natijasida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar sinf jamoasining har bir o‘quvchining muntazam va faol aqliy mehnat qilishiga, kichik guruhlarni, umuman sinf jamoasini jipslashtirishga, avval o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni yangi kutilmagan vaziyatlarda qo‘llanib, yangi bilimlarning o‘zlashtirishiga bog‘liq bo‘ladi.

“Muammoli ta’lim” metodi Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning intellektual imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanish quyidagi umumiy omillarga bog‘liq bo‘ladi: o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan muammoli savollar tizimi tuzish; qo‘yilgan muammoli savollar tizimi asosida suhbat metodi orqali tushuntiriladigan mavzu materiallarini o‘rgatish va uning tub mohiyatini ochib berish; muammoli savol asosida izlanish xarakteridagi o‘quv vazifalarini qo‘yish. Yuqoridagi bosqichlar asosida o‘quv materiali tushuntirilganda o‘quvchilar o‘zlari darrov tushunib etmaydigan fakt va tushunchalarga duch keladilar. Natijada o‘rganilayotgan mavzu materiali bilan o‘quvchilar orasida muammoli vaziyat hosil bo‘ladi. Muammoli vaziyatning roli va ahamiyatini aniqlash o‘quvchilarning aktiv fikrlash faoliyatini psixologik, pedagogik qonuniyatlarini hisobga olish asosida o‘quv jarayonini qayta qurish muammoli ta’limning asosiy g‘oyasini belgilab beradi. Muammoli vaziyatlarni hal qilish asosida hosil qilingan dars jarayoni muammoli ta’lim deyiladi. Muammoli ta’limda o‘qituvchi faoliyati shundan iboratki, u zarur hollarda eng murakkab tushunchalar mazmunni tushuntira borib o‘rganilayotgan mavzu materiali bilan o‘quvchilar orasidagi muntazam ravishda muammoli vaziyatlar vujudga

keltiriladi, o‘quvchilarni faktlardan xabardor qiladi, natijada o‘quvchilar bu faktlarni analiz qilish asosida mustaqil ravishda xulosa chiqaradilar va umumlashtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Fachglossar – Betriebliche Ausbildung. Deutsch-Russisch. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2008. Bonn, 60 s.

2. Berufsausbildung sichtbar gemacht. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2003. Bonn, 72 s.

3. Bildung in Deutschland. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2004. Bonn, 6 s.

4. Ausbildung und Beruf. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2007. Bonn, 222 s.

5. Berufsbildung in Deutschland. Europäisches Zentrum für die Förderung der Berufsbildung. (CEDEFOP). Thessaloniki. 2007, 102 s.

6. Jugend und Berufsbildung in Deutschland. Bundesinstitut für Berufsbildung. 1994. Berlin, 31 s.

7. Richard Arum, Melisa Velez. Inproving Learning Enviroment: School Discipline and Comporative Perspektive. Stanford Universiy Press, USA 2012.

8. H.Fry, S. Ketteridge, S.Marshall. HandbookFor teaching and Learning in Higher Education. New York, Routledge, 2009.